qildilar. Bularning hammasini o‘zlarining shaxsiy mablag‘lari yoki xayriya jamiyatlari hisobiga ochdilar. Misol uchun, Samarqandda 1913-yilning may oyidan boshlab Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchiligida «Samarqand» gazetasi chiqa boshladi. Gazeta Samarqandda «Gazarov va Smeyanov» tipografiyasida nash etilgan. Bu gazetani nashr etish uchun Toshkentda ochilgan taraqqiyparvar musulmonlarning «Umid» xayriya jamg‘armasi Munavvarqori Abdurashitxonov orqali 500 rubl jo‘natganlar. «Samarqand» gazetasida Turkiston mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot to‘g‘risida maqolalar o‘z aksini topgan edi. Bu gazetaning 44 ta soni chiqqanidan keyin mablag‘ yetishmovchiligi sababli nashr ishi to‘xtatiladi.

1913-yilning 20-avgustidan boshlab Samarqanddagi «Gazarov va Smeyanov» bosmaxonasida yana Behbudiy boshchiligida rus, o‘zbek va tojik tillarida musulmonlarning «Oyina» jurnali nashr qilina boshlandi. 1913–1915-yillarda jurnalning 68 nomeri (1720 bet) chiqib, 1915-yilning iyun oylarida to‘xtatiladi. Bu gazeta va jurnalda ko‘plab jadidlar Hoji Muin, Vasliy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa jadid namoyandalari o‘z maqolalari bilan ishtirok etdilar. Turkiston xalqining savodli va ma’rifatli, to‘q va farovon bo‘lishi, uni ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo‘lish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Shunday shiorlar va maqsadlar bilan jadidlar o‘z faoliyatlarini, kuch-g‘ayratlarini millatni uyg‘otishga bag‘ishladilar, mahalliy xalqning ko‘zini ochib, yuzlarini yorug‘ etish uchun jonlarini tikdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘rganilayotgan davrda viloyatda ruslar mahalliy aholini ruslashtirish, iloji boricha tashqi dunyodan ajratib qo‘yish maqsadida rus-tuzem maktablari ochdilar. Mahalliy xalqni bu maktablarga jalb etishga intildilar. Lekin majburiy ochilgan rus-tuzem maktablari mahalliy xalqqa begona edi. Shunday vaziyatda jadid namoyandalari o‘z g‘oyalari bilan tarix sahnasiga kirdilar. Bu buyuk ma’rifatparvarlar xalqimizni ma’rifatli, dunyoviy bilimlarga ega bo‘lishi uchun kurashdilar. Farzandlarimiz chet davlatlarning oliy o‘quv yurtlarida o‘qib, ilm o‘rganishi kerak, deb kurashdilar. Maktablar ochib, kitoblar, darsliklar yozib musulmon farzandlarini bepul o‘qishlari uchun sharoitlar yaratdilar. Bu maktablar Turkiston xalqlari tarixida ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib qoldi. Ular XX asr boshida Turkiston aholisining milliy ong va madaniyatini qaytadan yuksalishiga turtki bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. Душанбе, 1987, с. 31.

(2). Абд-ур-Рауфъ. Рассказы индийского путешественника («Бухара как она есть»). Самарканд, Махмудхожа Бегбуди. 1913, с. 79.

(3). Алматов. Новометодные школы, Самарканд, 1906, 20 май, № 37, с. 3.

(4). М.Ф.Махмадхожа Бегбуди. “Наука и просвещение”, 1922, № 1, с. 23.

(5). Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Акад. М.М.Хайруллаев таҳрири остида. Т., “Ўзбекистон”, 1995, 224-бет.

(6). Андреев Г. Туземцы и просвещение. “Туркестанский голосъ”, 1916, 12 ноябрь, № 103.

(7). Еникеев А. Мусульманская школа в Туркестане и ее прошлом и настоящем виде. “Туркестанский учитель”, 1917, № 7, с. 197.

(8). Пясковский А.В. Революция 1905–1907 гг. в Туркестане. М., 1958, с. 558.

(9). Авазов Н. Туркистонда ҳақ олинмади, берилди. “Ёшлик”, 1991, № 10, 43-бет.

(10). Андреев Г. Туземцы и просвещение. “Туркестанский голосъ”, 1916, 12 ноябрь, № 103.

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna (O‘zbekison davlat Jahon tillari universiteti “3-ingliz tili integrallashgan kursi” kafedrasi katta o‘qituvchisi; maqsadxonhakimova@gmail.com; https://orcid.org/0000-0002-3593-4888; УДК:82.01/09:82.145)

ADRIAN HENRI IJODIDA SHE’RIYAT VA SAN’ATNING ESTETIK-IDEOLOGIK TALQINI

Annotatsiya*. Maqola o‘z ijodiy faoliyatida san’atning bir necha turlarini uyg‘unlashtira olgan shoir, rassom va musiqachi Adrian Henrining hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Maqolada shoirning o‘quvchilarini hayotning bebaqo tabiati, muhabbat va ijodning tugmas kuchi haqida o‘ylab ko‘rishga chorlashi, shuningdek, uning Liverpul shoirlari harakatiga qo‘shgan hissasi, ingliz adabiyoti va san’atiga ko‘rsatgan ta’siriga urg‘u beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Liverpul shoirlari, adabiyot, san’at, she’r, rasm, rassom, shoir, surat.*

Хакимова Максадхон Дилшодбековна (старший преподаватель кафедры интегрированного курса английского языка №3, Узбекский государственный университет мировых языков)

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ПОЭЗИИ И ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АДРИАНА ГЕНРИ

Аннотация. *Статья посвящена жизни и творчеству Адриана Генри, поэта, художника и музыканта, который сумел объединить различные виды искусства в своей творческой деятельнос-*

ти. В статье рассматривается, как поэт призывает читателей задуматься о мимолетной природе жизни, любви и неиссякаемой силе творчества, а также его вклад в движение Ливерпульских поэтов и влияние на английскую литературу и искусство.

Ключевые слова: *ливерпульские поэты, литература, искусство, поэзия, живопись, художник, поэт, картина.*

Khakimova Maksadkhon Dilshodbekovna (Senior Teacher, Department of Integrated Course of English Language №3 Uzbekistan State World Languages University)

THE AESTHETIC AND IDEOLOGICAL INTERPRETATION OF POETRY AND ART IN ADRIAN HENRI'S WORK

Annotation. *The article is dedicated to the life and work of Adrian Henri, a poet, artist, and musician who was able to harmonize various forms of art in his creative activities. It discusses how the poet invites readers to reflect on the fleeting nature of life, love, and the inexhaustible power of creativity, as well as his contribution to the Liverpool Poets movement and his influence on English literature and art.*

Keywords: *Liverpool Poets, literature, art, poem, painting, artist, poet, picture.*

Kirish. Keng ommaga mo'ljallangan, o'zgacha hajviy va sahnabop she'riy uslubni ingliz poeziyasiga olib kirgan Liverpul shoirlaridan biri Adrian Henri nafaqat iste'dodli shoir va dramaturg, balki mohir rassom va pedagog, nozikta'b musiqachi va ijrochi hamdir. Uning ijodida badiiy ekspressiya va ijtimoiy tahlil o'zaro bog'liq bo'lib, asarlarida she'riyat va san'atning estetik-ideologik uyg'unligi shahar hayoti, hayotning oddiy, ammo muhim jihatlarini, ijtimoiy adolatsizlik va insoniy his-tuyg'ularni tasvirlashida ko'rinadi. Shoir badiiy ekspressiyada ijtimoiy va siyosiy muammolarni ko'rsatish uchun tasvirlar va metaforalardan foydalanadi hamda o'quvchilarni estetik-ideologik jihatdan tanqidiy-tahliliy fikrlashga chorlab, o'z atrofidagi dunyo haqida qayg'urishga undaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagi adabiyotlar guruhiga murojaat qilingan:

1. Jahon, jumladan, ingliz adabiyotshunos olimlari izlanishlarida she'riyat va san'atning estetik-ideologik talqini, Liverpul shoirlari asarlari va ular ijodida mavzular ko'lami masalalari tadqiqi yuzasidan bildirilgan fikrlar.

2. Mamlakatimizda poetik tafakkur, ijodkor shaxsi, yozuvchi va shoirlarning badiiy mahorati hamda uslubining turli qirralari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida ideologik, strukturalistik va poststrukturalistik, biografik, sotsiologik, lingvistik, psixoanalitik, fenomenologik, madaniy qiyoslash tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Rassomlik va she'riyat san'atkorning qo'sh qanoti bo'lib, u ranglar tasvirlashga ojizlik qilgan tuyg'ularini so'zlar bilan, so'zga sig'magan hislarini bo'yoqlar bilan qog'ozga tushiradi. "Men chizishni istayman" deydi shoir.

I want to paint
...
The Entry of Christ
into Liverpool in 1966
The installation of Roger McGough
in the Chair of Poetry at Oxford

Shoir chizishni istagan narsalarni na chizgilar va na bo'yoqlar tasvirlab bera oladi. Yangi yilning *kirib kelishini* yoki Roger McGoughning Oksford she'riyat kafedrasi mudirligiga *tayinlanishini* mo'yqalam bilan ifodalash mumkinmikan. Shoir, bundan tashqari, haqiqiy *hayotda mavjud* bo'lgan suv parilarini va Kaning ko'chasi yo'laklaridagi *har bir* toshning ulkan suratlarini, Beatls guruhi yozgan yangi *madhiyani* va Brian Patten o't o'chirgich bilan yozgan *she'rning rasmini*, boshpanasiz kimsalar *makon tutib*, *yashashi mumkin* bo'lgan tasvirlarni va markazda ma'shuqasi turgan dunyoning *to'liq masshtabli* xaritasi kabilarni chizishni istaydi va bularning barchasini poeziyaga aylantiradi.

I want to paint	*Men chizishni istayman*
...	*...*
Pictures worth	*Qiymati vazniga*
their weight in money	*teng bo'lgan rasmlarni*
...	*...*
I want to paint	*Men chizishni istayman*
pictures	*suratlarni*

Musavvir moybo‘yog‘-u suvbo‘yoqlaring imkonidan tashqari narsalarni chizishni xohlagan payt shoir qalami yordamga keladi: qiymati vaznidan-da ortiq she’rlar qog‘ozga ko‘chadi va musiqa jo‘rligida yangrab, kishilar qalbiga yo‘l oladi. Undagi bunday o‘ziga xoslikni Brian Patten shunday izohlaydi: “Sariq atirgul yeyayotgan qo‘ylarmi, skelet ekipajlari tomonidan boshqariladigan arvoh paromlarmi... Men Adrianning vizual tasavvurlaridan har doim zavqlanganman. Undagi shoir undagi rassom chizmoqchi bo‘lgan obrazlarni o‘z ichiga olgan she’rlar yozgan, undagi rassom esa shoir yozmoqchi bo‘lgan obrazlarni chizgan. Ammo, aslida, ruhining qaysi qismi tasvirlarni birinchi bo‘lib qabul qilgani muhim emas – Adrian tasavvuri qayerda ziyofat uyushtirsa, xayollari bilan o‘sha joyga yugurib ketardi va har doimgidek saxiylik ila topganlarini hammamiz bilan baham ko‘rish uchun qaytib kelardi”.[1]

Adrian Henri san’atning bir-biriga unchalik ham yaqin bo‘lmagan bir necha turlarini o‘zida birlashtirgan ijodkor. U o‘z falsafasini shunday ifodalaydi “agar biror ishni qila olaman deb o‘ylasangiz va qilishni istasangiz, demak, qila olasiz”.[2] Musiqa bilan ham professional tarzda shug‘ullangan shoir 1967–1970-yillarda faoliyat yuritgan va Liverpul yoshlari orasida katta shuhrat qozongan Liverpool Scene she’riy rok guruhi asoschisi va solisti edi. U o‘zi va ko‘plab zamondosh shoirlar she’rlarini musiqa jo‘rligida o‘qish bilan birga washboard ham chalardi. Adrian Henri konsertlariga kelgan muxlislarning, siz, avvalo, shoir, keyin rassomisiz yoki aksinchami, degan odatiy savollariga, men birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘rinda ham sizlar uchun kuylayman, deb javob berardi, lekin bunday savol, aslida, noo‘rin, shoir Adrian Henri bilan rassom Adrian Henri bir odam, uning bir o‘zida shoirning qayroqi tili va rassomning sinchkov ko‘zlari mujassam edi, deydi shoirning zamondoshi – shoir, dramaturg va kompozitor Willy Russell.[3]

Ijodiy faoliyatini, dastlab, rassomlikdan boshlagan shoir, keyinchalik, san’atning boshqa sohalariga ham qo‘l urgan bo‘lsa-da, she’riyat u uchun asosiy o‘rinda ekanligini e’tirof etgan edi: *“I think of myself as a maker, and presenter, of images of various media. Pop poets is, I think, the most common label”*.[4]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Adrian Henri ijtimoiy tahlil borasida keng ko‘lamli, badiiy ekspressiya jihatidan anchayin erkin ijod qilgan shoir, she’rlarining asosiy qismi hayotiy global muammolar haqida baxs yuritadi. Insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, yaratuvchanlik va buzg‘unchilik o‘rtasidagi azaliy ziddiyat, kishilarning insoniyat va jamiyat oldidagi burchi kabi masalalar ijodining katta qismini tashkil qiladi. Uning she’rlarini uchta asosiy tematik qismga bo‘lish mumkin: muhabbat mavzusi, joy tasvirlari va bag‘ishlovlar. Shoir avvalo san’at, tabiat, musiqa, sayohat, do‘stlik va sevgi oshuftasi edi. Henrining sevgi-muhabbat haqidagi she’rlarida tasodifiy to‘qnashuvlar, hayot mo‘jizalari, go‘zal visol onlari, aldamchi tuyg‘ular, istaksiz ajralishlar tasvirlangan bo‘lsa, joy tasvirlari qalamga olingan she’rlarida Liverpul, Manchester yoki qandaydir xayoliy Metropolisning markazidagi shahar manzaralarini, Uyels, Nyu-York yoki Janubiy Afrikaning uzoqdan ko‘rinuvchi landshaftlarini uchratish mumkin. Shoir qayerga bormasin, qayerda bo‘lmasin, albatta, o‘sha joyning “buzilgan tasvirlar to‘plami”ni olib kelgan va oxir-oqibat ular she’rlar yoki rasmlarga aylangan. [5] Adrian Henri qalamidan to‘kilgan satrlar va tasvirlar orasida u o‘zi hurmat qilgan va ardoqlagan juda ko‘plab insonlarga bag‘ishlab yozgan she’rlari va chizgan suratlarini ko‘rish mumkin. Ularda tasvirlangan kishilar barchaga tanishligi, xalq orasidan chiqqanligi va shu sababli oddiy odamlarga yaqinligi bilan ajralib turadi hamda XX asr o‘rtalaridagi Britaniya ijtimoiy hayotining mohiyatini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Booth, M. British Poetry 1964–84: Driving Through the Barricades. Routledge & Kegan Paul, 1985.

(2). Bowen, P. A Gallery to Play to: The Story of the Mersey Poets. Liverpool. Liverpool University Press. Second Edition, 2008.

(3). Henri, A. Contemporary Poets. Third Edition. St. James Press London, St.Martin’s Press New York, 1988.

(4). Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965–2000. Liverpool University Press, 2007.

(5). Taylor A. A poetry of place: the flÃ¢neur and Adrian Henri. Lancaster University (United Kingdom), Pro Quest, UMI Dissertations Publishing, 2008, U506514.

(6). Досбаева, Н.Т. Бевосита таржимада бадиий услубни қайта тиклаш (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида). (10.01.07), ЎзМУ, Тошкент, 2011, номзодлик диссертацияси.

[1] Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965–2000. Liverpool University Press. 2007, p. 8.

[2] Taylor A. A poetry of place: the flÃ¢neur and Adrian Henri. Lancaster University (United Kingdom), ProQuest, UMI Dissertations Publishing, 2008, U506514.

[3] Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965–2000. Liverpool University Press, 2007, p. 148.

[4] Henri, A. Contemporary Poets. Third Edition. St. James Press London, St.Martin’s Press, New York, 1988, p. 411.

[5] O‘sha manba. Introduction.

(7). Лебедев, А.Ю. Творчество и стиль «Ливерпульских поэтов». Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова, № 3, 2016.

(8). http://www.wikipedia free encyclopedia//Biography of Adrian Henry//

Aslanov Asatillo Ekramovich (Navoiy davlat universiteti "Fakultetlararo chet tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi; aslonovasatillo416@gmail.com)

ALISHER NAVOIY IJODIDA INSON QADRI VA KOMIL INSONGA XOS FAZILATLAR

Annotatsiya. *Maqolada mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandasi Alisher Navoiy ijodida inson qadri bilan bog'liq tushunchalar: o'zaro munosabat, do'stlik, ota-onaga sadoqat, diyonat, odillik, insof, saxiylik, mehr-shafqat, chuchuk tilli, rahmdil, mard bo'lish, ilmli, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabr-qanoatlilik kabi xislatlarning talqin qilinishi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *inson qadri, ijtmoiy guruh, diyonat, odillik, insof, saxiylik, mehr-shafqat, ma'rifat, umuminsoniy qadriyat, ijobiy xislatlar.*

ГАРМОНИЧНАЯ ЛИЧНОСТЬ И ПОНЯТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. *В статье анализируются понятия человеческого достоинства в творчестве великого представителя нашей классической литературы Алишера Навои: взаимоотношения, дружба, верность родителям, религия, справедливость, великодушие, сострадание храбрость, знание, доброта, довольство и терпение.*

Ключевые слова*: человеческое достоинство, социальная группа, религия, справедливость, великодушие, сострадание, просвещение, общечеловеческая ценность, положительные качества.*

HUMAN VALUE AND VIRTUES OF A PERFECT MAN IN THE WORK OF ALISHER NAVOIY

Annotation. *The article analyzes the interpretation of such concepts related to human value in the works of the great representative of our classical literature, Alisher Navoi: reciprocity, friendship, loyalty to parents, piety, justice, honesty, generosity, kindness, gentleness, compassion, courage, knowledge, good manners, living a life of contentment, patience and contentment.*

Keywords: *human value, social group, piety, justice, honesty, generosity, kindness, enlightenment, universal human value, positive qualities.*

Kirish. Inson qadri masalasi Qur'oni karim, Hadisi shariflarda, Mahmud az-Zamaxshariyning "Nozik iboralar", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Pahlavon Mahmudning ruboiylarida, Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston va Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning " Mahbub ul-qulub" "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror" va boshqa kop'lab asarlarda tahlil qilinib, ulug'langan.

Asosiy qism. Buyuk bobokolonimiz Alisher Navoiyning ijtimoiy soha jonkuyari sifatida millat tafakkurini rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyos. Shoirning butun faolyati asosida xalq va inson qadri yotadi. Navoiyning fikricha, Allohning irodasi bilan tog'-u toshlar, o'simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so'z bilan aytganda, butun borliq yaratilgan. Ammo hazrati inson bu mo'jizalarning eng asosiysidir. Shu tufayli dunyodagi barcha noz-ne'matlar, yaxshi narsalar inson uchun yaratilgan. Aql-farosat sohibi bo'lgan inson bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi lozim. Boshqacha aytganda, inson aql-farosati, tafakkuri, muomala madaniyati, o'zini tutishi, tevarak-atrofga bo'lgan munosabati bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Mutafakkir "Nasoyim ul-muhabbat" asarida avliyolarga xos bo'lgan 16 ta sifatga, ya'ni, tavba, halol luqma bilan ovqatlanish, o'z kasbi bilan kun o'tkazish, shariatga rioya etish, tariqat odobini saqlash, kamsuqumlik, farzandlari va xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli, rahmdil, saxiy va mard bo'lish, ilmlilik, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabrli, sadoqatli va vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik xislatlariga alohida e'tibor qaratgan .

Alisher Navoiy xalq g'amini o'z g'amidek bilmaydigan odamni odam qatoriga qo'shmasligi bejiz emas.

Odamiy ersang, demagil odami

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Buyuk bobokolonimiz insonga hayotdagi faoliyatiga, kasbi-koriga, foydali ishlariga qarab baho bergan. Jumladan, "Mahbub ul-qulub" asarida ijtimoiy tabaqalarga o'z munosabatini bildirar ekan, ularning qaysi biri xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini chuqurroq yoritib berishga harakat qiladi.